

INNOVATSION HAMKORLIK SHARTNOMASI

№ 86«30» X1 2021 yil

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi huzuridagi Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda Markaz deb nomlanadi) nomidan uning Direktori M.A.Taxirova, bir tomondan va Toshkent irrigatsiya va qishiloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (keyingi o‘rinlarda - TIQXMMI) nomidan institut ustavi asosida faoliyat yurituvchi birinchi prorektor Mirzayev Baxodir Suyunovich, ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tomonlar amaldagi qonun va qonunosti xujjatlaridan kelib chiqib ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradilar

1.2. Shartnomani tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassisliklar bo‘yicha Davlat ta‘limi standartlariga mos yangi o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, Markazning ilmiy salohiyatini oshirishda ko‘maklashishdan iborat.

2. Tomonlarning hamkorlik yo‘nalishlari

2.1. Tomonlar bilan quyidagi yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini olib boradi:

- hamkorlikni amalga oshirish maqsadida tomonlar koordinatorlari – TIQXMMI da “Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrası va Markazda markaz direktori, M.A.Taxirova.

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda ta‘lim tizimini takomillashtirishga oid dasturlar ishlab chiqish;

- ekologik ta‘lim tizimini takomillashtirish orqali yurtimizda barqaror ekologik muhitni shakllantirish va shu asosda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirishni tashkil etish;

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishlarida va mutaxassisliklarda o'qitish jarayonini takomillashtirish yuzasidan doimiy hamkorlik qilish;

- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni takomillashtirish;

- aholi, talabalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik ta'lim va tarbiya ishlarini zamonaviy turlarini amalga oshirish.

3. Tomonlarning hamkorlikdagi vazifalari

3.1. Markazning vazifalari:

- TIQXMMI bilan Markazdagi mutaxassisliklar bo'yicha Davlat ta'limi standartlariga mos yangi o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- Markaz tomonidan kafedraning moddiy texnika bazasi xamda o'quv laboratoriya jixozlaridan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- Markaz tomonidan TIQXMMI bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar dasturida belgilangan vazifalarning to'liq va belgilangan muddatlarda ijro etilishini ta'minlash;

- Markazning mutaxassislik fanlari bo'yicha o'qituvchilarni malaka almashinuvini tashkil etish;

- Markazda TIQXMMI ning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun amaliyot darslarini tashkil etish;

- TIQXMMI bakalavriat va magistratura bitiruvchilariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va shunga mos ravishda ularning malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotini Markazda o'tashlarini tashkillashtirish.

3.2. TIQXMMI ning vazifalari:

- Zarurat bo'lgan xollarda kafedraning professor-o'qituvchilarini Markaz o'quv jarayoniga jalb qilish;

- Markazda o'tkaziladigan konferensiya va seminarlarda kafedra olimlarining xozirgi davrning dolzarb masalalari bo'yicha ma'ruzalar bilan qatnashishini ta'minlash;

- Markazni TIQXMMI tomonidan ishlab chiqilgan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan imkoniyat doirasida ta'minlash;
- Markazning pedagog-o'qituvchilariga ilmiy maqolalar xamda o'quv-uslubiy qo'llanmalarini tayyorlashda kafedra professor-o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish;
- TIQXMMI tomonidan Markaz bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar dasturida belgilangan vazifalarning to'liq va belgilangan muddatlarda ijro etilishini ta'minlash;
- Markazning ilmiy kadrlarga bo'lgan extiyojidan kelib chiqib, uning kadrlar bazasini birgalikda shakllantirib borish;
- Markazning o'quv rejalar va dasturlari uzviyligini va uzluksizligini ta'minlash maqsadida TIQXMMI bilan hamkorlikni mukammallashtirish va o'quv jarayoniga tadbiiq etish;
- Markazda darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda TIQXMMI bilan hamkorlikda ishlar olib borish va mualliflarni zaruriy davlat ta'lim standartlari va fan dasturlari bilan ta'minlash;

4. Shartnomaga ayrim qo'shimchalar

4.1. Tomonlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan hamkorlikdagi tadbirlarni va vazifalarini amalga oshirish uchun bir-birlaridan zarur bo'lgan ma'lumot xamda axborotlarni olishlari mumkin.

4.2. Bir tomonning talabi bevosita boshqa bir tomonning faoliyatiga daxldor bo'lib, uning amalga oshirilishi uning faoliyatiga zarar keltirish bilan bog'liq bo'lsa, talabni qabul qilgan tomon, uni bajarishni rad etish xuquqiga ega.

4.3. Tomonlar ularning muayyan faoliyati o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, bu ularning rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazganda, mazkur faoliyat bo'yicha mavjud ma'lumotlar bazasiga ulanishi yoki o'zaro birgalikda dasturiy ta'minot yaratishi mumkin.

4.4. Tomonlar mazkur Shartnomada qayd etilgan tadbirlarni bajarilishini tashkil etish bo'yicha maxsus ishchi guruhni tuzadilar va ushbu ishchi guruhning bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladigan yig'ilishlarida shartnoma ijrosini muxokama qilib boradilar.

4.5. Mazkur shartnoma qoidalarini talqin qilish va qo'llashga doir baxs va kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan xal etiladi.

5. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda amal qilish muddati

5.1. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ular ushbu shartnomada belgilangan tartibda kuchga kiradigan va kuchga kirish paytidan boshlab uning ajralmas qismi xisoblanadigan alohida bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.


5.2. Shartnoma Tomonlar ishtirokchi bo'lgan boshqa shartnoma va kelishuvlarniig davomi hisoblanadi xamda boshqa kelishuvlarda qayd etilgan xuquq va majburiyatlarga daxl qilmaydi.

5.3. Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran boshlab kuchga kiradi va unda kursatilgan vazifalar va majburiyatlar to'liq ado etilguniga qadar amalda bo'ladi.

5.4. Shartnoma ikki asl nusxada tuzildi. Bunda barcha nusxalar bir xil yuridik kuchga ega.

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi direktori,


M.A. Taxirova
"28" 2021 yil



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti birinchi prorektori, t.f.d., professor


B.S. Mirzayev
"30" 2021 yil



Seer-